

M.H.AHMEDOV, M.R.SHERMATOV

**FARG'ONANING UMURTQALI
HAYVONLARI**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

M.H.Ahmedov, **M.R.Shermatov**

**FARG‘ONANING UMURTQALI
HAYVONLARI**

*Oliy o‘quv yurtlari biologiya, biologiya o‘qitish metodikasi, ekologiya
yo‘nalishlari talabalari, magistraturaning zoologiya mutaxassisligi
magistrantlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma*

(To‘ldirilgan ikkinchi nashri)

Taqrizchilar: **G‘.Homidov** - biologiya fanlari doktori
M.Nazarov - biologiya fanlari nomzodi

*Farg‘ona davlat universiteti Kengashi tomonidan
chop etishga tavsiya etilgan (2018 yil 30 noyabr, 4- sonli yig‘ilish
bayonnomasi).*

Farg‘ona-2019

SO‘Z BOSHI

Farg‘onaning o‘simlik va hayvonot olami o‘ziga xos va xilma xildir. Farg‘ona faunasida umurtqali hayvonlar alohida o‘rin egallaydi. Ko‘pchilik umurtqali hayvonlar, ayniqsa, qushlar har xil zararkunandalarni qirib, bog‘ va ekinzorlarga katta foyda keltiradi. Ayrim qushlar va baliqlar ov ahamiyatiga ham ega.

Umurtqali hayvonlarning ayrimlari (ayniqsa, kalamushlar, uy sichqonlari) xo‘jalikka katta zarar yetkazadi, turli yuqumli kasalliklarni tarqatadi. Ta‘kidlanganlarning barchasi har bir hudud faunasini batafsil o‘rganish zarurligini taqozo etadi.

Hayvonlarni o‘rganishda, eng avvalo, ular qaysi sinf va guruhga mansubligini bilish nihoyatda zarur. Bo‘lajak biolog va ekolog mutaxassislar birinchi navbatda o‘zi yashayotgan joyning o‘simlik va hayvonot dunyosini bilishi va farqlay olishi kerak. Bu o‘rinda mazkur qo‘llanma yordam berishi shubhasiz. Chunki unda Farg‘onada uchrovchi umurtqali hayvonlarni 48 turga (jumladan, baliqlarning 5, suvda va quruqda yashovchilarning 2, sudralib yuruvchilarning 8, qushlarning 26 va sut emizuvchilarning 7 turi) mansub vakillarining tuzilishi va hayoti haqidagi ma‘lumotlar muxtasar bayon etilgan. Har bir hayvonning o‘zbekcha, lotincha va ruscha nomlari berilgan, qo‘llanma oxirida bu nomlar ro‘yxat tarzida keltirilgan. Ushbu ro‘yxat talabalar tomonidan to‘liq yod olinishi maqsadga muvofiq.

Oliy o‘quv yurtlari dasturiga muvofiq hayvonlarni turlar bo‘yicha amaliy o‘rganishga kam vaqt ajratilgan. Ushbu qo‘llanma yordamida talabalar dala amaliyotlari davomida va mustaqil tarzda Farg‘onada uchrovchi umurtqali hayvonlarni o‘rganishlari mumkin.

Ushbu qo‘llanmadan talabalardan tashqari, o‘rta maktablarning biologiya fani o‘qituvchilari, o‘rmon va qishloq xo‘jaligi xodimlari va hayvonlar hayoti bilan qiziquvchi har qanday kasb egalari foydalanishlari mumkin.

FARG‘ONA SHAHRINING EKOLOGIK SHAROITI

Vodiyimizning boshqa shaharlari singari Farg‘ona shahrining madaniy landshaftlari tuzilishi jihatidan alohida o‘rin tutadi. Shahar landshafti hayvonlarning yashashi uchun o‘ziga xos alohida muhit, ularning qismlarini ba’zi tabiiy biotoplarga solishtirish mumkin xolos. Hech qachon ularga tenglashtirib bo‘lmaydi.

Shahar landshaftlarini biotoplar yig‘indisi desa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularning har bir qismi kelib chiqishi jihatidan turlicha tabiatga ega.

Shaharning ekologik tuzilishini quyidagi to‘rtta biotopga ajratish mumkin: madaniy qurilishlar, daraxt va butasimon o‘simliklar, o‘tsimon o‘simliklar biotopi va suv havzalari.

Qurilishlar biotopi. Mazkur biotop jarlik va o‘rmonlik qoyalarni eslatadi. Bu biotopga bir qavatli qurilishlar, hovli devorlari, hozirgi zamon ko‘p qavatli imoratlar, zavod- fabrikalarning binolari, ko‘prik va boshqalar kiradi. Ularning har biri o‘zining maxsus ekologik xususiyatiga ega. Bir qavatli uylarning piramonlari va devorlarning kavaklari kaltakesaklar, ilonlar, kemiruvchi hayvonlar hamda qushlarga pana va uya qurish uchun qulay joy hisoblanadi.

Ko‘p qavatli uylarning karnizlari va minoralari chumchuqlar, mayna, jar qaldirg‘och, musicha hamda kaptarlarning dam olish va uya qurish joylariga aylangan. Ko‘p qavatli uylar massivlarida jar qaldirg‘och, mayna va kaptarlarning populyasiya soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Daraxt va butasimon o‘simliklar biotopi. Mazkur biotopga mevasiz va mevali bog‘lar, skverlar, ko‘cha-alleyalari va boshqalar kiradi. Shahrimizda daraxtsimon o‘simliklarning ko‘p bo‘lishi bilan butun mamlakatimiz miqyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Farg‘ona hududida daraxtsimon o‘simliklarning yuzdan ortiq, butasimonlarning 30 yaqin turi uchraydi.

Bu biotop atrof hududlarga qaraganda o‘ziga xos mikro iqlimga ega, yozi nam va salqin, qishda harorat iliq, daraxt va qurilishlar shamol tezligini sekinlashtiradi. Mazkur biotopga o‘troq hayvonlardan kaltakesaklar, yashil qurbaqa hamda qushlarning o‘troq va kelib ketuvchi vakillarini kiritish mumkin.

Ochiq o‘tsimon biotoplarga istirohat bog‘laridagi, hovli gulzorlari, yashil manzarli o‘simliklarga boy ochiqliklar va yo‘l chetlari, maydonlar qirg‘oqlaridagi o‘tsimon qoplamalar kiradi. Bu yerlar kaltakesak, qurbaqa va ko‘pgina qushlarning o‘tlash joylari hisoblanadi.

Suv biotoplariga dam olish ko‘llari, hovuzlar, soy va kanallar, sug‘orish shahobchalari kiradi. Bu biotop baliqlarning yashash joylari bo‘lishi bilan birga, suvda va quruqda yashovchilar, ko‘pgina qushlarning ovqat topish joyi ham

hisoblanadi. Ko‘l, soy va kanallar ustida qaldirg‘ochlarning doimo uchib yurganini kuzatish mumkin.

Farg‘ona shahri O‘zbekistonning boshqa yirik shaharlari singari o‘zining alohida mikroiklimiga ega. Sug‘orish kanallari ko‘p, yozi nam, salqin, qishi issiq, havosi avtomobil va sanoatdan ajralgan gazlarga boy shahar bo‘lganligi bilan xarakterli. Har xil yuqori tovushlar, sun‘iy yoritish sistemalari ko‘p. O‘zining ekologik tuzilishi jihatidan boshqa biotoplardan keskin farq qiladi.

Shaharda insonlar faoliyati natijasida biotik va abiotik omillarning o‘zgarishini boshqa joylarga solishtirish mumkin emas.

Keyingi yillarda shahrimizda ko‘pgina qushlarning populyasiyasi son jihatidan sezilarli o‘zgardi. Masalan, qarg‘alar, oq qanot, qizil ishton, bulbullar kamaygan bo‘lsa, uning o‘rniga o‘tgan asrning 60-yilarida, umuman Farg‘ona shahrida bo‘lmagan, mayna va qumrilar ko‘plab ko‘paymoqda. Baland qavatli massivlarda uzun qanot, qaldirg‘och va kaptarlar populyasiyasi son jihatdan ortdi. Shahrimizning kengayishi, shahardagi tabiatning o‘zgarishi hisobiga qushlardagi fe‘l-atvorlar ham o‘zgarib bormoqda.

BALIQLAR SINFI

Baliqlar sinfi umurtqali hayvonlarning kenja tipiga kirib, qariyb 20 mingga yaqin turlarni o'ziga birlashtiradi.

Baliqlar sinfi umurtqalilarning suvda yashashga moslashgan vakillari bo'lib, ular Shimoliy qutbdan to janubiy qutbgacha xilma xil suv havzalarida, dengiz va okeanlarning barcha chuqurliklarida tarqalgan.

Yashash sharoitiga qarab, ular turlicha kattalikda va ko'rinishda bo'ladi. Farg'ona shahri va uning atrofidagi suv havzalarida baliqlarning 5 turi mavjud.

Zog'ora baliq, sazan – *Cyprinus carpio* L. (Sazan)

Karpsimonlar turkumining bir turi. Karpsimonlar oilasiga mansub. Chuchuk suvlarda yashaydi. O'zbekistonda juda keng tarqalgan. YEvropa, Shimoliy Amerikada sun'iy ko'paytirilgan. Qora, Kaspiy, Orol dengizi havzalarida ham tarqalgan. Umuman, bu baliq daryo va ko'llarda, soy va kollektorlarda, suv omborlarida tez oqar daryolardan tashqari hamma suv havzalarida uchraydi. Qishda chuqur kamarlarga to'planadi.

Zog'ora baliqning tangachalari yirik, og'iz atrofida ikki juft mo'ylovi bor, xalqum tishlari yaxshi rivojlangan, jag'larida tishlar bo'lmaydi.

1 metr kattalikdagilari 15-20 kg keladi. Bular 30 yilgacha umr ko'rishi mumkin. 3-4 yilda voyaga yetadi, serpusht, 20 mingdan 100 mingtagacha, va hatto, millionlab uvildiriq tashlashi mumkin. Uvildirig'ini 30-40 sm chuqurlikdagi joylarga, o'tlarga yopishtirib qo'yadi. Lichinkasi siklop, infuzoriyalar kabi mayda organizmlar bilan ovqatlanadi. Kattalari qisqichbaqa, shoxilonlar, chuvalchang kabi jonivorlar va o'simliklar bilan ovqatlanadi. Karkidon suv ombori, Marg'ilonsoy va Farg'ona atrofidagi zovur hamda kichik ko'llarda uchraydi.



Oddiy qora baliq – *Schizthorax intermedius* Mc Clell

Oddiy qora baliq (marinka) karpsimonlar oilasi, qora baliqlar urug'iga kiradi. Gavdasi cho'ziq, mayda tangachalar bilan qoplangan. Og'iz burchagi va burun ostida juft mo'ylovlari bor. Tiniq suvda yashovchilarining yelkasi qoramtir yoki qo'ng'ir, yon tomoni va qorni sarg'ish bo'ladi. Yelka suzgichining birinchi shulasi qattiq, o'tkir mayda tishlar bilan qoplangan. Kattalari 30 sm atrofida.

Qora baliq tez oqadigan daryolarda ko'plab uchraydi.




Ular oqimga qarab suzadi. Balandligi 2 metrli sharsharalardan sakrab o'ta oladi. Bu baliq Marg'ilonsoy, Chek-sho'ra ariqlarida havaskor ovchilarning qarmog'iga tez-tez ilinib turadi. Soylarning chuqurlashgan joylariga to'planadi.

Bu baliqlarning tanasi ichidagi qora pardasi va ikresi zaharli bo'lib, mayda jo'jalarga berib sinab ko'rilganda ko'plari kasallanib, nobud bo'lgan. Bularni iste'mol qilish uchun qora pardasini tozalasa, go'shti shirin baliqlardan hisoblanadi.

Shim baliq – Barbus eapito Kessl.

Karpsimonlar turkumining bir turi. Bu baliqlar (usach)ning kattaligi 60-70 smgacha, tangachalari katta, tepasining rangi o'zgaruvchan, ko'pincha, to'q sariq. Og'iz oldi va og'iz burchagida bir juftan mo'ylovi bor. Shuning uchun ham mo'ylov baliq deb ataladi.


O'rta Osiyoda Amudaryo va Sirdaryo hamda ularga quyiladigan jilg'alarda, ko'l, suv ombori, hatto suvda erigan kislorodga kambag'al bo'lgan botqoqlik, tagi balchiq suvlarda ham uchrashi mumkin.



Yemishi suv o'tlari va hasharot qurtlaridan va mayda jonivorlardan iborat.

Turkiston qum balig'i, tangacha baliq – Gobio gobio L.

Karpsimonlar oilasining bir turi, keng tarqalgan baliqlardan. O'rta Osiyoda xilma xil suv havzalarida, jilg'a, soy, ariq, kanal, suv omborlari va sholipoyalarda, suvi toza tiniq qumloq joylarda yashovchi chuchuk suv balig'idir. Marg'ilonsoy va Chek-sho'ra arig'ida ko'plab uchraydi. Kattaligi o'rtacha 10-12 sm., og'iz burchaklarida bittadan mo'ylovi bor. Yelkasi qo'ng'ir ko'kimtir tovlanadi. Yoni sarg'ish, qorin tomoni oqish rangda. Yon tomonda qator hollari bor. Suzgichlarida sarg'ish mayda qora dog'lari bo'ladi. Aprel, iyun oilarida tuxumlarini suv tubiga, toshlarga yoki o'simliklarga yopishtirib qo'yadi. Uvildirig'i 5 mingtagacha boradi. Har xil mayda jonivor va suv o'tlari bilan ovqatlangani uchun ovlanadigan balig'lar yemishiga sherik bo'ladi hamda ma'lum zarar yetkazadi, iqtisodiy ahamiyati yo'q.



Gambuziya – Gambusia affinis Bai.

Karptishlilar turkumi, gambuziyalar oilasiga kiradi. Vatani Shimoliy Amerika. Kattaligi urg'ochilari 4-5 sm, erkaklari 3-5 sm, elka tomoni qoramtir, qorin tomoni oqish, tangachalari kattaroq, jag'ida mayda tishlari bo'ladi.

Issiq, chuchuk va sho'rxob suvlarda keng tarqalgan. Suv harorati 10 gradusga qadar pasaysa, loy va balchiqqa ko'milib ketadi. Suvdagi mayda



o'simliklar va hasharotlarning lichinkalari bilan ovqatlanadi. Bu baliq 30-yillarda bezgak chiviniga qarshi kurashish uchun keltirilgan. Hozir tez oqar suvlardan tashqari katta va kichik suv havzalarida uchraydi. Suv omborlari, ko'llar, kanallar, ariqlar va sholi cheklarida ko'plab uchratish mumkin. Hatto quriyotgan sho'rxob suvlarda uchraydi. Gambuziya tirik tug'uvchi baliqlardan. May, iyun oylaridan boshlab yoz davomida bir necha marta har safar bir necha o'nlab va yuzlab bola tug'adi. Bir oyda voyaga yetadi. 40-45 kunlardan keyin bola bera boshlaydi. U har xil mayda hasharotlarning lichinkalari, tuban qisqichbaqalar, suv o'rgimchaklari bilan ovqatlanadi. Bezgak chivini lichinkasini qirish bilan foyda keltiradi. Shu bilan birga baliqlar ikrasi va lichinkalarini yeyishdan baliqchilik xo'jaliklariga zarar ham yetkazadi.

Gambuziya Farg'ona shahridan o'tadigan Marg'ilonsoy va Cheksho'ra arig'i bilan bog'liq hamma suv shahobchalarida ko'plab uchraydi.

SUVDA VA QURUQDA YASHOVCHILAR SINFI

Bu sinfning hozirgi kunda er sharida uchta turkumi uchrab, tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan. Ularning 1900 ga yaqin turi fanga ma'lum. O'zbekiston sharoiti qurg'oqchil bo'lganligi sababli faqatgina ikkitagina vakili yashaydi. Bular ko'k qurbaqa va ko'l baqasi bo'lib, dumsizlar deb ataluvchi turkumga kiradi. Lekin daryo va boshqa har xil suv havzalari qirg'oqlarida ko'p uchrab, tabiatda va xo'jalikda sezilarli ahamiyatga ega. Shahrimizdan o'tadigan Marg'ilonsoy va Cheksho'ra (chek-ariq) qirg'oqlarida va boshqa sug'orish ariqlari atrofida yashil qurbaqa va ko'kbaqani ko'plab uchratamiz.

Ko'k qurbaqa – Bufo viridis Laur.

Qurbaqalar oilasi va shu nomli urug'ning vakilidir. Bu tur O'rta Osiyo hududida keng tarqalgan. O'zbekistonning barcha joylarida va har xil sharoitlarda, cho'l va sahrolarda, tog' etaklarida, poliz va bog', shahar va qishloqlarda uchraydi. Kattaligi 12-14 sm gacha, gavda usti ko'kimtir och kulrang, katta-katta to'q ko'k yoki ko'kimtir qo'ng'ir hollari bor. Terisining ko'p qismi shoxsimon parda so'gallar bilan qoplangan. Teridagi zaharli bezlardan ajralgan suyuqlik uni kushandalaridan himoya qiladi. Shunga qaramay, ularning asosiy kushandasi ilonlar hisoblanadi.



Erta bahor mart-aprel oylarida endigina qishki uyqudan uyg'onib chiqqan qurbaqalarning shahrimiz bog' va gulzorlarida, yo'l bo'ylari, poydevor ostilarida sekin harakatidan chiqadigan shitirlash tovushlarini eshitamiz. Qurbaqa tungi hayvon, lekin erta bahor kechasi sovuq bo'lganligi uchun kunduzi ham faol hayot kechiradi. Qishki uyqudan uyg'onib chiqqan qurbaqalarni 2-3

haftadan keyin erkaklari yoqimli "qur-qyr" tovushlarini boshlaydi. Erkaklarida ovoz to'lqinlarini kuchaytirib beruvchi og'iz burchagida rezonatorlari bo'ladi, ko'payish davrida urg'ochilarining oldingi oyoq panjasida ko'chishiga yordam beradigan so'gal bo'rtmasi bo'ladi. Ko'payish uchun har xil suv havzalariga kelib (sho'r suvlardan tashqari) urg'ochilari uvildiriq tashlaydi, erkaklari tezda urug'ini xaltalaridan to'kib otalantiradi. Otalanishi suvda boradi. Bitta urg'ochisi 10-12 ming donagacha uvildiriq tashlaydi. Uvildiriq ipga tizilgan ko'rinishda bo'lib, 2-3 m gacha bo'ladi, uni suv o'simliklariga ilashtirib qo'yadi. Tuxumdan it baliqchalar chiqadi, bir hujayrali suv o'tlari va chirindilar bilan ovqatlanadi, ikki oylardan keyin metamorfozga uchrab baqachalar quruqlikka chiqib tarqaladi, 4 yoshida voyaga etadi. Kech kuzda kovak-kandiklardan, sichqon va kalamush uylaridan, balchiq ostilaridan qishlash uchun joy topadi.

Ko'k qurbaqa qishloq xo'jaligi uchun zararli hasharotlarni ko'plab qirgani uchun eng foydali hayvonlardan biri hisoblanadi. Germaniyada dehqonlar sunoiy ko'paytirib, bog'larga qo'yadilar. Bizning sharoitimizda ham shu ishlar qilinsa, foydadan holi bo'lmas edi.

Ko'l baqasi – Rana ridibunda Pall.

Dumsiz, suvda va quruqlikda yashovchilar turkumining bir turi, suv baqalari oilasining baqalar urug'iga kiradi. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonning hamma tumanlarida keng tarqalgan. Hayoti suvda yoki suv yoqalarida o'tadi.

Bunga sabab terisi o'ta suv o'tkazuvchanligidandir, namlanib turmasa, teri qurib qoladi. Terida har xil bakteriotsit suyuqlik ajratuvchi bezlarning ko'p bo'lishi xarakterli. Rangi ko'pincha, yashil bo'ladi. Birona xavf tug'lsa, sakrab suvga sho'ng'iydi. Orqa panjalarida pardalar yaxshi rivojlanganligi uchun yaxshi suzadi. Nafas olishning 50 foizi teridan bo'lganligi uchun suv ostida uzoq vaqt tura oladi. Erkaklarining og'iz burchagida shishib chiqadigan tovush qopchalari - rezonatorlari bor. Ko'l baqa faqat tirik harakat qilayotgan o'ljasini tutib ovqatlanadi. Har xil hasharotlar uning ovqati bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, pardaqaotlilar, arilar, har xil chuvalchanglar, shilliqurt, suvda yashovchi hasharotlar, baliq chavaqlari va boshqalar.

Kuzda havo sovishi bilan suv yoqalaridagi kamarlar ichida, suv tubidagi loyqalar tagida 50-60, baosida 500 donagacha to'planib o'ralar hosil qiladi. Bahorda uyg'onib, aprel-may oylarida erkaklari o'ziga xos tovush bilan sayraydi. Urg'ochilar 5000 dan 10000 donaga qadar uvildiriqlarni suv o'tlariga ilashtirib qo'yadi. It baliqlari iyun oxirlariga metamorfozini tugatib yosh baqachalarga aylanadi. Ko'l baqasi zararli hasharotlarni qirish bilan katta foyda keltirsa, sun'iy baliqchilikka baliq chavoqlarini eyishi bilan zarar ham keltiradi. Ko'l baqasining kushandalari ko'pgina qushlar, chiyabo'ri, tulkilardir.

Ko'l baqasidan ilmiy-tekshirish institutlarida, ta'lim muassasalarida laboratoriya tajribalarida foydalaniladi. Ko'l baqasini himoya qilish zarurligi keng omma orasida tushuntirilishi maqsadga muvofiq.



SUDRALIB YURUVCHI HAYVONLAR SINFI

Sudralib yuruvchi hayvonlar sinfi mezozoy erasida Yer sharida keng tarqalgan bo'lib, 11 turkumga ajralgan. Hozir ularning to'rtta turkumigina yashaydi. Sudralib yuruvchilarning 6 mingga yaqin turi bo'lib, shundan Farg'ona vodiysida 40 dan ortiq turi uchraydi. Farg'ona shahri uchun xarakterli bo'lgan vakillarga to'xtalib o'tamiz.

Bo'z fotmanchig'i, bo'z gekkoni – *Gymnodactylus russowi* Str.

Kaltakesaklarning bir turi. Tangachalilar turkumining gekkonsimonlar oilasiga va yaydoq barmoqli gekkonlar urug'iga kiradi. Bo'yining uzunligi 11-12 sm, bundan yarmi boshi bilan tanasiga to'g'ri keladi. Bu gekkon O'rta Osiyo respublikalarida keng tarqalgan. Farg'ona shahrida yoz oylarida kun botishi bilan mayda qushlarning sayrashiga o'xshash tovush chiqarib, devor karnizlarida, daraxt va buta o'simliklarida, soylar bo'ylarida o'ljasini kutib turadi. Rangi to'q yoki och kulrang bo'ladi. Kunduz kunlari devor yoriqlarida, tosh, kesak oralarida, har xil kovaklarda berkinib yotadi. Qishki uyquni ham shunday yerlarda o'tkazadi. Qishki uyqudan mart oyi oxirlarida uyg'onadi, may oylarida pergament pustli oqish kulrang tuxum qo'yadi (1-2 tadan bir necha marta). Ba'zida bir nechtasi bir yerga tuxum qo'ygani uchun 15-20 donasi to'planib qoladi.

Bo'z kaltakesak ari, chumoli, qo'ng'iz, pashsha, chivinlar bilan ovqatlanib foyda keltiradi. Shimoliy Amerikada pashshalarga qarshi kurash uchun uylarda maxsus ko'paytiriladi.



Turkiston fotmanchig'i, turkiston xorom kaltakesagi – *Gymnodactylus fedstchenkoi* Strauch.


Boshqa fotmanchig'lar kabi oyoqlari ajoyib tuzilgan (changalbarmoqlar ham deyiladi). Ular devor, daraxt, jar kabi tik yerlarda, hatto oyna betida ham yura oladi (ko'plarining barmoqlari ostida yopishqoq so'rg'ichlar bor). Shuning uchun ularni changalbarmoqli kaltakesak deb aytiladi. Ulardagi tana umurtqalarining amfitsel tuzilganligi hozirgi kaltakesaklar ichida eng sodda tuzilganligini ko'rsatadi. Ko'zlarida qovoqlar rivojlanmagan. Turkiston fotmanchig'i shahrimizda odam turadigan eski va yangi binolarda ko'plab uchraydi. Qishlash joylari, mavsumiy faolligi, yil aktivligi bo'z fotmanchigiga o'xshaydi. Fotmanchiqlar oilasiga kiradigan kaltakesaklar haqida har xil afsona va uydirmalar to'qilgan. Bu kaltakesak turlaridan O'zbekistonda odam juda jirkanadi, undan qochishga harakat qiladi.



Kaltakesak siydigi tegsa, odam pes bo‘lib qolar emish deyishadi. Bunday gaplarni noto‘g‘riligi fanda isbotlangan. Bular ham kechki hasharotlar bilan ovqatlanishi bilan faqat foyda keltiradi xolos.

Cho‘l bilakuzugi, cho‘l ilonquyrug‘i – Ablefarus deserti Str.

Kaltakesaklar kenja turkumining ssinksimonlar oilasi bilakuzuklar urug‘iga kiradi. Cho‘l bilakuzugining bo‘yi 11-12 sm bo‘lib, uning yarmidan ko‘prog‘i dumiga to‘g‘ri keladi. Gavdasi cho‘ziq ilonga o‘xshash, oyoqlari nozik, boshi katta qalqon tangachalari bilan qoplangan, gavdasi baliqlarnikiga o‘xshash silliq tangachalar bilan qoplangan gavdasi yashash muhitiga qarab, och yoki ko‘k kulrang, osti oqimtir ko‘rinishga ega. Yelka tomonida 2-3 ta, Yon tomonida bir qator to‘qroq serbar, qoramtir yo‘llari bo‘ladi.




Ko‘zlari ilonga o‘xshash tiniq parda bilan qoplangan, qovoqlari yo‘q. Ular O‘rta Osiyoda juda keng tarqalgan. Farg‘ona shahrida uni dam olish bog‘larida, hovli va dala bog‘larida, soy va ariqlar, ko‘llar qirg‘oqlarida uchratish mumkin. Umuman, Farg‘ona vodiysida eng ko‘p tarqalgan kaltakesaklardan hisoblanadi va tuprog‘i

nam yumshoq o‘tlar orasida yuradi.

Qishki uyquda 4-5 ta bo‘lib, tuproq ostida qishlaydi. Erta bahor qishki uyqudan uyg‘onib, kundalik hayotga o‘tadi. Kuning issiq kunlarida soya-salqinda dam oladi. Urg‘ochilari 3-6 dona tuxum qo‘yadi. Tuxum po‘sti yumshoq - pergament po‘st bilan qoplangan. Inkubatsiya davri 1,5 oydan 2 oygacha. Bu bilakuzuk har xil hasharotlar, ularning qurtlari, o‘rgimchak va shilliqurtlar bilan ovqatlanib foyda keltiradi.

Ildam kaltakesak – Eremias velox Pall.



Tangachalilar turkumining haqiqiy kaltakesaklar oilasiga va kaltakesaklar urug‘iga kiradi. Bu kaltakesaklarning gavdasi ixcham, kelishgan, tanasi uzunchoq, uzunligi 24-25 sm bo‘lib, dumining uzunligi 2/3 qismiga to‘g‘ri

keladi. Tanasining usti kulrang, to‘q jigarrang yoki qoramtir, yelka tomonida bir necha bo‘yiga qarab qator bo‘lib o‘rnashgan qora hollari, ikki yonida qora xalqali oqish dog‘lari bo‘ladi. Rangi yashash muhitiga qarab juda o‘zgaruvchan. Bu kaltakesak O‘zbekistonda juda keng tarqalgan. U yeri qattiq tuproqli daryo vohalarida, toshloq sahrolarda, tog‘ etaklarida, to‘qayzorlarda, dala va qishloqlarda yashaydi. Farg‘ona shahrida ko‘plab uchraydi. U har xil hasharotlar, qurtlar, qo‘ng‘izlar, o‘rgimchaklar bilan ovqatlanadigan foydali hayvon.

Sariq ilon – Ophisaurus apus Pall.

Tangachali kaltakesaklar turkumining urchuqsimonlar oilasiga kiradi. Gavdasi uzun ilonsimon, oldingi oyog‘i yo‘q, orqa oyog‘ining rudiment holdagi qoldig‘i bor. Gavdasi 40-45 sm, dumi gavdaga nisbatan ikki marta uzun bo‘lishi, ko‘zlarida harakatchan qovoqlari, gavdasining ikki yonida og‘iz oldidan boshlanib orqa oyog‘ining rudimentigacha davom etadigan teri burmasi bo‘lishi bilan ilonlardan farq qiladi.


Soy, ariq va buloq bo‘ylarida yashashni yaxshi ko‘radi. Madaniy landshaftlarda ham uchraydi, mevazor va uzumzor bog‘lar, tashlandiq dalalardagi sug‘orish kanallari qirg‘oqlarida, eski qabristonlarda uchratish



mumkin. Sariq ilon yumshoq tanli shoqilonlar, qirq oyoq, chigirtka va mayda kemiruvchilar bilan ovqatlanadi. Sariq ilonni odam ko‘rsa o‘ldiradi, yoki ularni har xil kasallarga dori sifatida tutadi. Lekin sariq ilon tanasidan hech qanday shifobaxsh modda hozirgacha topilgani yo‘q, bu noo‘rin uydirma gaplar xolos. Sariq ilon hasharotlar bilan ovqatlanib, faqat foyda keltiradi, uni himoya qilish haqida tushuntirish ishlari olib borish kerak.

Suv ilon – Natrix tesseliata Laur.

Ilonlar kenja turkumining suv ilonsimonlar oilasidan bir turi, zaharsiz. O‘rta Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham keng tarqalgan. Urg‘ochi ilonlarning bo‘yi 120-130 sm atrofida. Erkaklari kichikroq, ingichkaroq, ixcham ko‘rinishga ega. Gavdasining usti to‘q qizg‘ish, kulrang qizg‘ish yoki qoramtir bo‘lib, ustida shaxmat tartibida joylashgan qora hollari yoki ko‘ndalang qora yo‘llari bor. Qorin tomoni to‘rtburchakli qora dog‘lar bilan koplangan bo‘lib sariq yoki qizil rangga ega. Bu ilonlarning rangi juda xilma xil. Bular ba’zi vaqtlarda dalalarda uchrasa ham, suv bilan juda bog‘langan. Yaxshi ko‘rib yashaydigan yerlari daryo, ko‘l, ariq, sholipoya, hovuz kabi suv yoqalaridir.



Farg‘ona sharoitida bahorda Marg‘ilonsoy, Cheksho‘ra arig‘i atroflarida ko‘p uchraydi. Yozning issiq kunlari oftob tushmaydigan g‘aramlar, kamarlar, kalamush uyalarida kunduzi berkinib yotib, kechasi faol hayotga o‘tadi. Kuzda sovuq tushishi bilan suv qirg‘oqlaridagi kamarlarda, toshlar ostida, kemiruvchilar uyasida, daraxt to‘nkali kovaklarida yakka yoki 20-30 ta ilonlardan iborat "to‘da" hosil qilib qishlaydi. Erta bahorda qishki uyqudan turganda lanj, bo‘shashgan bo‘lib, ko‘p vaqtini havoda isinib yotish bilan o‘tkazadi, apreldan faol

hayot kechirishga o'tadi. Baqa, qurbaqa, it baliq va baliqlar bilan ovqatlanadi. Aprel oylarida urchib, urg'ochilari iyun va iyul oylarida diametri 30-45 mm 5-15 dona tuxumini toshlar osti yoki kemiruvchilar uyasiga qo'yadi. Avgust oyida tuxumdan chiqqan bolasi (12-13 sm) bahor va kuzda boshqa ilonlar kabi terini butun tashlash bilan tulaydi. Baliqchilik xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligaga foyda keltiruvchi bo'lgan baqa va qurbaqalarni qiradi, bu bilan ma'lum zarar keltiradi.


Naqshdor o'rmalovchi chipor ilon – *Elaphe dione* Pall.

Suvilonsimonlar oilasining naqshdor ilonlar urug'i vakili, zaharsiz ilonlardan. Yelka tomoni kulrang yoki kulrang-qo'ng'ir rangda bo'lib, tanasi bo'ylab to'rt qator qo'ng'ir yo'llari bor, undan ikkitasi dumigacha davom etadi, ko'ndalang qora chiziqli hollari bo'ladi. Bo'ynining ustida o'ziga xos naqshlari bor. O'zbekistonning hamma joyida uchraydi. Tog' etaklari, to'qay va dalalar, suv qirg'oqlari, cho'l va sahrolarda yashaydi. Suvda chaqqon suzib baliq ham ovlaydi. Bu ilon, asosan, mayda kemiruvchilar, ba'zan qushlar bilan ovqatlanadi. Iyulda 5 dan 16 tagacha tuxum qo'yadi. Tuxumi 5 sm gacha bo'ladi. Naqshdor o'rmalovchi chipor ilonni Farg'ona shahrida istirohat bog'i maysalari orasida, eski daraxtlarning chirigan tomirlari tagida, soy yoqalarida uchratish mumkin. Jahldor, uni bezovta qilsa, tishlashga harakat qiladi. Mayda kemiruvchilarni qirish bilan foyda keltiradi.



Qalqontumshuq, Bo'shilon – *Ancistrodon halys* Pall.

Chinqiroq ilonlar oilasining bir urug'i bo'lib, Farg'ona atrofida zaharli ilonlarning faqatgina shu bitta turi uchraydi. Uzunligi 75 sm gacha. orqa tomoni och yoki to'q kulrang, ko'ndalang qora dog'lari tanadan dumining ustigacha davom etadi. Tananing ikki tomonida bo'yiga cho'zilgan xolchalardan iborat yo'li bor. Qorin tomoni oq yoki qoramtir rangga ega. Bizdagi yashab turgan boshqa ilonlardan farqi, boshi biroz yapaloqlashgan bo'yindan alohida ajrab turadi. Tumshug'ining ikki tomonida burun teshigi bilan ko'zi oralig'ida chuqurcha bor. Farg'ona vodiysi atroflaridagi tog'lar va tog' etaklarida, qabristonlarda sichqon va kalamush uyasi atrofida uchratish mumkin. Kun botib, qorong'u tushishi bilan ovqat axtarib aktiv faoliyatga o'tadi. Bu zaharli ilon kaltakesak, mayda kemiruvchilar, qushlar va hasharotlar bilan ovqatlanadi. U serg'azab, johil ilonlardan emas, odam sharpasini eshitsa, ohista berkinadi, faqat payti kelganda zaharli tishlari bilan tishlab zaharlashga intiladi. Bu ilon tishlagan joyda va u joy atrofida shish paydo bo'ladi, sezilarli og'riq bo'lib, 5-10 kunda o'tib ketadi. Agar ot, qo'y, mollarni o'tlab yurganida tumshuqlarini chaqib olsa, halok etadi. Bahorda uyqudan turib, tezda urchishga harakat qiladi. Urg'ochisi sentyabr oyida 15-20 sm gacha tirik bola tug'adi.



QUSHLAR SINFI

Qushlar sinfi umurtqali hayvonlarni yuqori darajada rivojlangan guruhi bo'lib, xilma xil ekologik sharoitlarni egallagan. Bosh miya yaxshi rivojlanganligidan qushlarning xulq-atvorlari ancha murakkablashgan. Farg'ona shahrida o'troq va kelib-ketuvchi qushlarning 80 ga yaqin turi hisobga olingan.

Qushlar insonlarga estetik zavq berish bilan birga, daraxt, butalar va o'tsimon o'simliklar zararkunandalarini qirish bilan katta foyda keltiradi.

Farg'ona shahrida yashovchi qushlarning biologiyasi va ekologik xususiyatlari bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

Turkiston oq laylagi – *Ciconia ciconia asiatica* Sev.

Turkiston oq laylagi uzunoyoqsimonlar turkumining laylaklar oilasi vakili hisoblanadi. Yirik qushlardan, bo'yni uzun, oyog'i va tumshug'i ham uzun va qizil rangda, qanotining birinchi darajali patlari qora, qolganlari esa oq rangda.

Oq laylaklar Shimoliy Afrika, Yevropa, Turkiya, Iroq, Eron va Kavkazda keng tarqalgan. O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan qushlardan sanaladi. O'zbekistonda Sirdaryo bilan tutashgan hududlarda ko'p uchraydi. O'zbekistondan qishlash uchun Pokiston va Hindistonga boradi. Qishi issiq kelgan yillarda O'zbekistonda qishlab ham qoladi.

Laylak ancha ozayib borayotgan qushlardan hisoblanadi. Shuning uchun «O'zbekiston Qizil kitobi»ga kiritilgan.

Fevral-mart oylarida qishlash joylaridan qaytib kelib, xo'rozlari o'z uyalarini ta'mirlay boshlaydi, so'ngra makiyonlari qo'shiladi. Laylaklar monogam qushlar hisoblanadi. Uyalarini mahallalar atrofidagi katta daraxtlarga, elektr tarmog'i ustunlariga, minora va tomlarga quradi. Bu jamoa qushlari, ba'zida bitta katta daraxtda o'nlab uyalar qurishi ham mumkin. Ko'pincha, uchta tuxum qo'yadi, tuxum bosishda xo'rozi va makiyoni qatnashadi. Uyada jo'ja ochuvchi qushlarga kiradi. Bolalariga navbatlashib ovqat tashiydi, bittasi doim qo'riqlaydi. Iyun-iyul oylarida bolalari uyalaridan uchirma bo'lib chiqadi. Avgust oyidan boshlab barcha laylaklar daydi hayot kechira boshlaydi. Ular har xil madaniy landshaftlar, daryo, ko'llar, kanallar atroflaridan baqalar, sudralib yuruvchilar, hasharot va shu kabilarni tutib yeydi.



Odamlar laylaklarni muqaddas qushlar qatoriga kiritadi. Ularning ayrim fazilatlar haqida matbuot va jurnallarda ko'plab yozilgan. Farg'ona shahri markazida laylaklarning keyingi yillarda uchratish qiyin bo'lib qoldi. Bunga shahardagi shovqinlar sabab bo'lsa kerak. Shahar chekkasidagi yuqori vol'tli elektr tarmoqlari ustunlarida uchratish mumkin.

Ko'k kaptar, Yovvoyi kaptar – *Columba livia* L.



Ko'k kaptar – kaptarlar turkumi va kaptarlar oilasining vakili. Kaptarlar madaniy zotlarining qadimgi ajdodi. Bundan 5000 yillar muqaddam Misr va Hindistonda madaniy zotlari keltirib chiqarilgan. Ko'k kaptar kaptarlarning boshqa turlaridan tumshug'i qora, qanotida ko'ndalang qora yo'llarning bo'lishi, dumida esa qora ko'ndalang yo'llarning bo'lmasligi bilan farq qiladi, og'irligi 450-500 gr. O'rta Osiyoda keng tarqalgan,

Kaspiy dengizi qirg'oqlaridan to Pomir tog' vodiylarigacha uchraydi. U o'troq qushlardan hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida tog'larda, ochiq tekis yerlarda, daryo vodiylarida, shahar va qishloqlarda, jarlik yerlarda yashaydi. Uyasini tog'lardagi o'pirilgan toshlar orasiga, qoyalardagi yoriqlarga, imorat cherdaklariga va shunga o'xshash yerlarga quradi. Ko'payish davrida, ba'zan umri bo'yi juft hayot kechiradi. Uyasini cho'plar bilan sodda quradi. 2-3 dona tuxum qo'yadi. Erkagi va urg'ochisi navbatlashib tuxum bosadi, 17 kunda jish bola ochib chiqadi. Bolasini jig'ildonida hosil bo'ladigan kaptar "suti" bilan boqadi. Yiliga 3-4 marta ko'payadi. Donxo'r, madaniy va yovvoyi o'simliklarni yerga to'kilgan donlari bilan ovqatlanadi. Bug'doy va arpa boshhoqlariga zarar yetkazmaydi.

60-80 yillarda boshqa qushlar qatori hasharotlarga qarshi gerbitsidlarni qo'llanishi natijasida kaptarlar ham son jihatdan sezilarli darajada ozayib ketgan edi. Keyingi yillarda ekologik sharoitning yaxshilanishi natijasida shahar va atroflardagi bug'doyzorlarda galalari yana paydo bo'la boshladi. Kaptarlar go'shti uchun havaskor ovchilar tomonidan ovlanadi. Keyingi yillarda madaniy zotlari bilan chatishib, duragaylari hosil bo'layotganini havaskor kaptar boquvchilar aytmoqda, bu alohida kuzatishni taqozo qiladigan holat. Kuz oylarida bir necha o'nlab, yuzlab guruhlar hosil qilib, shahar atroflaridagi bug'doy o'rilgan yerga chiqib o'tlaydilar.

Kaptar yerga to'kilgan bug'doy, arpa va yovvoyi o'simliklar donlarini isteomol qilganligi uchun ularni qishloq xo'jaligiga keltiradigan zarari deyarli sezilmaydi. Shuning uchun kaptarlarni muhofaza qilib e'zozlash zarur. Bu insonlarga estetik va ma'naviy ozuqa bersa, ikkinchidan, ularni kuz va qish oylarida rejali ovlash mumkin.

Hozirgi kunda kaptarlarning madaniy zotlari -350 dan ortiq bo'lib, ulardan go'shti uchun, estetik zavq uchun, pochta (hozirgi kunda o'z vazifasini yo'qotgan bo'lsa ham o'z davrida 300 km gacha uchib borib kelgan) sifatida foydalanish mumkin.

Qumri – *Streptopelia decaocta* Frif.

Kaptarlar turkumiga kiradi va O‘zbekistonda keng tarqalgan. U bog‘larda, shahar va qishloqlarda, aholiga yaqin joylarda yashaydi. Rangi qo‘ng‘ir, kulrang, buynining elka tomonida yarim oysimon qora yo‘li bor. Bo‘yin osti, jig‘ildon, ko‘kragi kulrang pushti, boshi va qorin tomoni havorang. Dum patlari kulrang oqishroq. Fevral oylaridan erkaklari o‘ziga xos tovush chiqarib urg‘ochilarini chaqira boshlaydi. Boshqa kaptar, musichalarga o‘xshash, daraxtlarga, shiftlarga xas-cho‘plardan sodda uyalar quradi. Bolalarini qush "suti" bilan boqadi.



Donxo‘r, ovqatlanish uchun yaqinroqdagi dalalarga uchib boradi. Ular katta guruhlar hosil qilmaydi. Ov ahamiyati uncha katta emas. Qush ishqibozlari qumrilarni qo‘lga o‘rgatib, qafasda saqlaydilar. Qafas sharoitida ko‘payadi. Qumrilar odamga ancha o‘rganib borayotgan qushlardan hisoblanadi. Odam 16-20 metr yaqin borsa ham bezovtalanmaydi.

Musicha - *Streptopelia senegalensis* L.

Kaptarlar turkumiga kiradi. Farg‘ona shahrida musicha uchramaydigan xonadonni uchratish qiyin, qariyb hamma uy, hovlilarimizda, bozorlarda uchraydi. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Odam yashaydigan joylarda o‘troq hayot kechiradi. Insonlar shunday ko‘nikib ketganki, uni ovlashni xayoliga ham keltirmaydilar. Uyasini odam yashaydigan imorat, karnizlar, tom ostilariga, daraxt hatto toklarning



ustiga ham sodda qilib quradi. Ikki donadan tuxum qo‘yadi. Tuxumlarini bosishda va jish bolalarini boqishda erkagi ham ishtirok etadi. Jig‘ildonidan ajralgan qush "suti" bilan bolalarini boqadi. Yoz davomida 2-3 marta tuxum qo‘yadi. Musicha judayam beozor qush, u bug‘doy, arpa, jo‘hori, mosh kabi to‘kilgan don va begona o‘tlarni urug‘lari bilan ovqatlanadi. Xo‘jalikka zarari sezilmaydi. Uylarning ko‘rki bo‘lib qolgan qushlardan hisoblanadi.

Oddiy kakku – *Cucuius canorus* L.

Kakkular turkumi va kakkular oilasiga kiradi. Kakku bedana kattaligidagi qush bo'lib, patlari tepa tomonidan kulrang, qorin tomonidan oqish ko'ndalang kulrang yo'llari bo'ladi. Ba'zan urg'ochilari qo'ng'ir sarg'ich rangda ham bo'ladi. Keng tarqalgan qushlardan biri. O'rmon, to'qayzor, shahar va qishloqlarda yashaydi. O'rta



Osiyoning barcha yerida uchraydi. Kelib-ketuvchi qushlarga kiradi. Kakkularning erkaklari aprel oyining boshlarida urg'ochilarini chaqirib sayraydi. Bu davrda ular «kak-ku», «kak-ku», deb sayrab joy egallaydi. Urchish davri apreldan to iyun oxirlarigacha davom etadi. Kakkular uya solmaydi. Tuxumini o'zi bosmaydi, balki chumchuqsimon qushlar - chumchuq, jibljibon, bulbul kabi qushlarning uyalariga tuxumini qo'yadi. Shu uyaning egasi bo'lgan qush kakku tuxumini bosadi. Kakkular ko'payish davrida 20 ta tuxum qo'yadi. Tuxumini har ikki-uch kunda bittadan boshqa qush uyalarida egasi uchib ketgandan keyin o'z tuxumini qo'yib, uya egasining tuxumini olib tashlaydi yoki uning bolalari tuxumdan chiqib, uya egasining jish bolasini uyadan itarib tushirib yuboradi. Ba'zi daraxtlarning ostida tuxumlarning sinib, jish bolalarning o'lib yotishiga asosiy sababchi kakkulardir. Shuning uchun bu qushlar «uya parazitlari», deb ataladi. Kakkular, asosan, hasharot va ularning lichinkalari bilan ovqatlanib xo'jalikka foyda keltiradi.

Uy yapaloqqushi – *Athene noetua* L. Scop.



Yapaloqqushlar yoki tungi yirtqich qushlar turkumiga kiradi. Musicha kattaligida, O'zbekistondagi o'troq qushlardan hisoblanadi. Patlarning rangi qoramtir, qo'ng'ir, kulrang, sarg'ich ranglarning aralash ko'rinishida. Qoramtir-sarg'ich hollarda ko'p uchraydi. Qorin tomoni sarg'ish, qoramtir yo'llari bo'ladi. Quloqli yapaloqqush nomini olgan. Bu qush o'zi uya qurmaydi. O'z tuxumini hakka, qarg'a, olahakka kabi qushlarning eski uyasiga, daraxt kovaklariga qo'yadi. Aprel oyida 3-4 tadan tuxum qo'yadi. Tuxumini urg'ochisi bosadi, bir oyda bola ochib chiqadi. Erkaklari ovqat olib keladi, urg'ochilari uni bolalariga berib boqadi. Yapaloq qushlarning ko'plari tunni faol o'tkazadi. Qorong'u tushishi bilan qabrison atroflarida,

tashlandiq uylarda, bog'larda ularning o'ziga xos sayrashlarini eshitamiz.

Qabrisonlar atrofida, haroba - tashlandiq joylardagi sichqon va kalamush kabi kemiruvchilar ularning asosiy ozig'i bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun bu qushlar juda foydali hisoblanadi. Ularni himoya qilish uchun xalq orasida tushuntirish ishlarini olib borish kerak.

Bulbul – Luscinia megarhynchos Brehm.

Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga kiradi.

Chumchuq kattaligidagi qush, patlarining rangi kulrang, kulrang-sarg'ish bo'ladi. O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan. O'zbekistonga kelib ketuvchi qushlardan hisoblanadi. O'rmon va butazorlarda, tog' vodiylarida, to'qayzorlarda, shahar va qishloqlarda uchraydi. Bulbul ko'zga



yaqqol tashlanmaydigan, yashirin hayot kechiradigan qush. Aprelning ikkinchi yarmidan kela boshlaydi. Erkaklari bog'lardan joy egallash uchun kun botishi bilan erta tong otguncha, ba'zida kunduzi ham xilma - xil, ajoyib tovushlar chiqarib sayraydi. Sayrab turgan xo'rozlari odam yaqinlashishi bilan uchib ketadi. Uyalarini daraxt va butalarga yerdan uncha baland bo'lmagan joylarga o'simlik barglari va boshqa narsalardan piyolachaga o'xshatib quradi. Tuxumi 3 tadan 6 tagacha bo'ladi. Urg'ochilari tuxum bosadi. Tuxum bosib yotgan yoki bolalarini boqayotgan davrida odam yaqinlashsa, juda bezovtalanadi. Ba'zi da bolalari erta uyalaridan tushib ketib nobud bo'ladi. Ularning uyalariga bolalari uchirma bo'lguncha odamning yaqinlashmagani ma'qul. Bulbul hasharotxo'r qushlardan bo'lib, bolalarini ham hasharotlar bilan boqadi. O'zlari yoqimli tovush chiqarib sayrashi bilan insonlarga estetik zavq beradi, ma'naviy ruh bag'ishlaydi. Hasharotlar bilan ovqatlanib, iqtisodiy foyda keltiradi. Bu qushlarni jalb etish uchun shaharlarimizga butasimon o'simliklarni ko'proq ekish kerak.

Sassiq popushak – Upupa epops L.

Ko'kqarg'alar turkumining popushaklar oilasiga kiradi. Sassiqpopushak tashqi ko'rinish jihatidan boshqa qushlardan sezilarli ajralib turadi. Musicha kattaligida, boshida popushagi bo'lib, vaqti-vaqti bilan yelpig'ichsimon yozib turadi. Patlari



qo'ng'ir yoki sarg'ich qora va oq rangda bo'lib, o'ziga xos chipor tovlanma ko'rinishga ega. Popushagi sariq, uchi qoramtir, tumshug'i uzun, yoysimon qayrilgan. Sassiqpopushak O'rta Osiyoning hamma joylarida uchraydi. Odam yashaydigan joylarga yaqin yerlarda hayot kechiradi. Kuz oylarida (sentyabr-oktyabr) O'zbekistondan qishlash uchun issiq mamlakatlarga uchib ketadi, kelib ketuvchi qushlarga kiradi. Ba'zi havo issiq kelgan

yillar qishlab ham qoladi. Bahor oylarida qaytib keladi. O‘ziga xos tovush chiqarib sayray boshlaydi. Uylarini yaxshi himoyalangan daraxt kovaklariga, eski uylar, toshlarning orasiga xas-cho‘plardan, har xil matolardan quradi. 3 tadan 10 taga qadar tuxum qo‘yadi, 16-18 kun tuxumini erkagi va urg‘ochisi navbatlashib bosadi. Bolalarini uyasida 22-24 kun davomida urg‘ochisi va erkagi boqadi.

Oq qanotli qizilishton – *Dendrocopos leucopterus* Salvad.

Qizilishtonlar turkumiga kiradi. Chug‘urchuqlardan kichikroq, qanoti ola va dumining osti to‘q qizil rangda. Shuning uchun qizilishton nomini olgan. Ko‘kragi va oldingi tomoni oqish, boshini usti qora, peshonasi oq. Enasida qizg‘ich hoshiyasi bor, chakkasi qora-qo‘ng‘ir bo‘ladi. O‘zbekistonda keng tarqalgan bo‘lib, o‘rmon va to‘qayzorlarda, qishloq va shahar bog‘larida uchraydi. Bular o‘rmon qushlari bo‘lib, tuzilishi daraxtlarda yashashga va hasharotlar



bilan ovqatlanishga moslashgan. Daraxtlarning po‘stloq va yog‘och qismini teshish uchun ularning boshlari katta, tumshuqlari to‘g‘ri, o‘tkir, qalin shox qatlam bilan qoplangan. Bu qushlar daraxtlarni hasharotlar va zamburug‘lar bilan zararlangan hamda chirigan yerlarini topib teshadilar. Daraxt kovaklari va po‘stloqlari orasidagi hasharotlarni tutish uchun tillari uzun, ilmoqchali, yelim modda bilan qoplangan. Daraxtlarda o‘rmlab yurish uchun oyoqlari qisqa, barmoqlari uzun, tirnoqlari o‘tkir va ikkinchi barmog‘i orqa tomonga qaragan bo‘ladi. Dum patlari baquvvat, daraxtda o‘rmlab yurganda unga tayanadi.

Ko‘payish oylaridan boshqa vaqtlarda yakka yuradi.

Daraxtlarning ostidan o‘rmlab to uchigacha ko‘tarilib boradi. Tumshug‘i bilan daraxtni urib bo‘sh yerini topib, har xil hasharot va ularning lichinkalarini olib ovqatlanadi. Mart oylaridan boshlab erkaklari tumshug‘ini daraxtga qattiq urib "childirma" chala boshlaydi, bu sayrash o‘rniga o‘tadi. Daraxtlarni chirigan joylaridan kavlab uyalar yasaydi. Urg‘ochilari 5-8 ta tuxum qo‘yadi. Tuxumdan jish bola chiqadi, ularni boqib uchirma qiladi. Bu qushlar daraxtlarni zararkunandasi bo‘lmish qo‘ng‘iz va ularning lichinkalarini yeb katta foyda keltiradi.

So‘fito‘rg‘ay – *Galerida cristata* L.

Chumchuqsimonlar turkumi va to‘rg‘aylar oilasining vakili. Sinantrop qushlardan. Insonlar yashaydigan joylarga yaqin yerlarda uchraydi. Boshqa to‘rg‘aylardan boshida popushak patlarining bo‘lishi bilan ajralib turadi. Patlarining rangi ochiq kulrang ko‘rinishda. O‘troq qushlar, o‘tsimon o‘simliklari bor xilma xil yerlarda uchraydi, yo‘l qirg‘oqlari ularning sevgan joylaridan biri.

Farg'ona shahridagi yo'l, stadion qirg'oqlari, o'tloqlar, qurg'oq yerlariga sodda uyalar quradi. Erta-bahor ko'payish oylarida yoqimli tovush chiqarib erkaklari



sayraydi va o'z juftini topadi. Urg'ochilari tuxum qo'yib bo'lganidan keyin juftidan ajraladi. Urg'ochisi 3-5 ta tuxum qo'yadi va 10-11 kun bosadi, 10-12 kundan boshlab bolalari uyalaridan chiqadi. Sufito'rg'aylar hasharotlar, har xil o'simliklarning to'kilgan donlari bilan ovqatlanadi.

Qora jarqaldirg'och – Apus apus L.

Uzunqanotlar turkumi, jarqaldirg'ochlar oilasiga kiradi. O'zbekistonga kelib ketuvchi qushlardan hisoblanadi. Qishlash uchun Afrika, Osiyoning Janubiga, Avstraliyaga uchib ketadi. bular tez va chaqqon uchadigan kunduzgi qushlar. Yerdan yurolmaydi, yerdan qiyinchilik bilan havoga ko'tariladi. Bu qaldirg'ochlar tog' va pasttekisliklardagi jarliklarda yashaydi. Keyingi yillarda qishloq va shahardagi har xil minoralar va ko'p qavatli binolarni karnizlarida yashashga moslashayotgan, shahar sharoitiga moslashib borayotgan qushlarga misol bo'ladi.



Farg'ona shahriga mart oyining oxiri, aprelning boshlarida bir necha o'nlab hatto yuzlab galalar hosil qilib kela boshlaydi. O'zlarining juftini topib ko'p qavatli uy karnizlariga patlar, poxol, paxta, qillardan sulaklari yordamida yopishtirib uyalar quradi. Bu qaldirg'ochlar



uyalari atrofida narsalarga qo'nib o'tira olmaydi. Uchib kelib to'g'ri uyalariga qo'nadi va uyalaridan havoga ko'tariladi. Urg'ochilar 3-4 dona tuxum qo'yadi, urg'ochisi 18 kun tuxum bosadi, bu davrda erkaklari urg'ochilarini boqadi. Jish bola ochuvchi qushlardan, bolalarini 40 kun davomida uchib yurgan pashsha, chivin kabi hasharotlar bilan boqib uchirma qiladi. Shundan keyin katta - katta galalar hosil qilib ucha boshlaydi. Minglab galalar hosil qilib, avgustning ikkinchi yarmidan boshlab uchib keta boshlaydi. Qora jarqaldirg'och havoda pashsha, chivin kabi zararli hasharotlar bilan ovqatlanib, insonlarga katta foyda keltiradi.

Qishloq qaldirg'ochi – *Hirundo rustica* L.



Chumchuqsimonlar turkumining qaldirg'ochlar oilasiga kiradi. O'rta Osiyoning baland tog' va sahrolardan tashqari qariyb hamma joylarida uchraydi. Bularning patlari va yelkasi qora, bo'yni qo'ng'ir-qizg'ich, qorin tomoni oqish yoki qo'ng'irroq ko'rinishga ega bo'lib, jig'ildonida qora yo'llari bor. Farg'ona vodiysiga mart oyining oxiri va aprel oyining boshlarida uchib kela boshlaydi. Avgust, sentyabr oylarida uchib ketadi. Qishloq qaldirg'ochi odamlar

yashaydigan joylar bilan bog'langan. Bular qishloq va shahardagi uylarga hamda boshqa qurilishlarga loydan guvalakchalar yasab so'laklari bilan ilashtirib uyalar quradi. Uylarini mustahkam bo'lishi uchun qil va somonlarni ishlatadi. Uylari quriganda ancha mustahkam bo'ladi. Uya qurishda erkak va makiyonlari ishtirok etadi. Uylariga 4-7 ta tuxum qo'yadi. 12-14 kun atrofida tuxum bosadi va bolasini 20 kun uyalarida boqadi. Bolalari uchirma bo'lganidan keyin ham bir necha kun boqadi. Keyinchalik bolalari mustaqil hayotga o'tadi. Kattalari yana tuxum qo'yishga kirishadi va avgust oylarida uchirma qilib chiqaradi. So'ngra qaldirg'ochlar gala bo'lib to'plana boshlaydi. Galalari bir necha yuzlab, hatto minglab sonlarni hosil qiladi. Hindiston va Afrikaga qishlash uchun sentyabr-oktyabr oylarida uchib ketadi.

Bular havoda uchib yurib, pashsha, chivin, qo'ng'iz, kapalaklarni chaqqonlik bilan tutib yeb xo'jalikka katta foyda keltiradi. Qadim zamonlardan insonlar mehrini qozongan qushlardan biri hisoblanadi. Insonlar qaldirg'ochlarga ozor bermaslikka harakat qiladi.

Tuya qaldirg'och – *Hirundo daurica* L.

Qishloq qaldirg'ochidan patlarining elka, yon va qorin tomonida sarg'imtir tovlanishi bilan aniq ajralib turadi. Bahorda qishloq qaldirg'ochlaridan bir-ikki hafta keyin keladi. Kuzda sentyabr va oktyabr oylarida uchib ketadi. Tuya qaldirg'och g'orlarga va inson yashaydigan bir qavatli va ko'p qavatli uylarga uya quradi. Uyasining shakli kolbani teng bo'lib, yopishtirib qo'ygan shaklni eslatadi va bu kolbaning og'zi uyiga kirish uchun yo'l bo'lib xizmat qiladi. Uylarini loydan ilashqoq



soʻlaklaridan ajralgan suyuqliklar bilan yopishtirib quradi. Bolalari 24 kunda



uchirma boʻladi, bularning ota-onasi bir-necha kun yana boqadi. Keyin ikkinchi marta tuxum qoʻyishga oʻtadi. Tuya qaldirgʻochlarining ham ovqati boshqa qaldirgʻochlarning singari havoda uchib yurgan har xil mayda hasharotlar boʻlib, ular pashsha, chivin va shu kabilarni qirib foyda keltiradi.

Zargʻaldoq – Oriolus oriolus L.

Chumchuqsimonlar turkumi zargʻaldoqlar oilasiga kiradi. Zargʻaldoq bizda keng tarqalgan, eng chiroyli qushlardan biri hisoblanadi. Bularning xoʻrozlari, ayniqsa, tovlanib turadi. Yelka tomoni va qorin tomoni toʻq-sariq, qanoti va dum patlarining oʻrtasi qora. Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan - togʻlarda, daryo vodiylarida, madaniy landshaftlarda uchraydi. Bahorning aprel oxiri va may oylarida uchib keladi, sentyabr oylarining boshlarida uchib keta boshlaydi. Qalin oʻrmonlarda yashashni maʼqul koʻradi. Juda ehtiyotkor qush, odamdan yashirin hayot kechiradi. Baland daraxtlarga har xil narsalarni toʻqib uyalar quradi. Uya qurishda erkak va makiyoni birga ishtirok etadi. Tuxumini makiyoni bosadi, erkagi uni boqadi. Uyasiga 3-4 dona tuxum qoʻyadi. Uylarini boshqa yirtqich qushlardan (hakka, qargʻa va boshqalar) himoya qiladi. Bu qushlar haqiqiy oʻrmon qushlari, yashil rangi ularga himoya vazifasini oʻtaydi, qalin shox-shabbalar orasiga ustalik bilan yashirinadi. Ularni sayragan tovushlarini eshitib, keyin axtarib koʻrish mumkin. Yerga kam tushadi, yaxshi yurolmaydi. Olma, nok, anjir mevalarini choʻqib bogʻlarga qisman zarar keltirishi mumkin.

Zargʻaldoq Oʻrta Osiyodagi eng chiroyli qushlardan biri, bizning bogʻlarimizni oʻzining chiroyli koʻrinishi bilan bezabgina qolmay, chiroyli sayrashi bilan insonlarga zavq bagʻishlaydi. Bu qushlarni acrash kerak.



Hakka, Zag'izg'on – Pica pica L.

Chumchuqsimonlar turkumining qarg'asimonlar oilasiga kiradi. Zag'izg'onni tanimaydigan odam kam uchrasa kerak. Boshi, yelkasi, qanotlarining uchi, dumi va oyoq patlari qora, qorin tomoni, qanotining usti oq, uzun dumini qora rangi ustida yashil rang tovlanib turadi. Zag'izg'on o'troq qushlardan, O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan. Qalin o'rmon va bog'larda chaqqon, shoxdan-shoxga sakrab harakat qiladi. Daraxtlarga cho'plardan, har xil sim va iplardan dag'al uyalar yasaydi. Hatto, ba'zi da uyalari mayda qirqilgan simlardan iborat bo'ladi. Uyalariga har xil yaltiroq narsalarni olib kelishni yaxshi ko'radi. Erta bahor havo issiq keladigan bo'lsa, fevral-mart oylaridan 9-10 tagacha tuxum qo'yadi,



urg'ochisi 20 kungacha tuxum bosadi, shuncha kun bolalarini uyida boqib, so'ngra uchirma qiladi. Bular katta galalar hosil qilmaydi. Lekin biron xavf tug'lsa, bezovtalanish tovushini boshqalari eshitishi bilan to'planib birgalikda kushandasini haydaydi. Bular juda sezgir, atrofdagi holatni juda yaxshi sezadi. Masalan, odam qo'lidagi oddiy yog'och bilan ov miltigini farqiga boradi. Ovchilarni ko'rsa tezda qochadi. Bu qushlar umurtqasiz va mayda umurtqali hayvonlar bilan ovqatlanadi. Mevali bog'larga biroz zarar keltiradi. Mayda qushlarni tuxumini va bolalarini yeb ularga zarar yetkazadi. Ba'zida axlat va o'limtiklar bilan ovqatlanadi. Farg'ona sharoitida hakkani keltirgan zararidan ko'ra foydasi ko'proq, chiroyli qushlardan hisoblanadi.

Quzg'un – Corvus corax L.



Chumchuqsimonlar turkumi, qarg'asimonlar oilasiga kiradi. Chumchuqsimon qushlarning eng kattasi hisoblanadi. Kattaligi 60-65 sm. o'rmon, jar yoqalari, daryo vodiylarida o'troq holda yashaydi. O'zbekiston sharoitida uyasini tog'lardagi qoyalar orasiga quradi. Quzg'un foydali qushlardan, hamma narsani eyaveradi. Hasharotlar, mayda umurtqalilar, o'limtiklar va

o'simlik donlari bilan ovqatlanadi. Farg'ona shahriga bular kelib ketuvchi qushlar hisoblanadi. Qish oylari ularning to'dasini shahar atrofidagi dalalar, axlatlar to'kiladigan joylarda, kechasi shahrimizdagi baland daraxtlarda va tong yorishi bilan uchib ketishini kuzatish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi. Erta bahorda ko'payish joylariga uchib ketadi. Bu qushlar o'limtik va kalamush-sichqonlar bilan ovqatlanib, katta foyda keltiradi.

Ola qarg'a – Corvus cornix L.

Chumchuqsimonlar turkumiga kiradi. Bu qarg'ani boshi, ko'kragi, tanasi va dumi qora, patlarining qolgan qismi kulrang bo'ladi. Rangidan boshqa qarg'alardan osonlik bilan ajratish mumkin. Farg'ona shahri atroflariga sentyabrning boshlarida kela boshlaydi va erta bahor mart va aprel oylarida keta boshlaydi. Bular quzg'unlar bilan birgalikda shahar atroflaridan ovqatni topib yeb, kechasi baland daraxtlarda tunni o'tkazadi. Bular qish oylarida quzg'unlar bilan birgalikda sichqon va kalamushlarni ovlab katta foyda keltiradi, shuning uchun bular ham "sanitar qushlar" deb ataladi.



Katta chittak – Purus major L.



O'rta Osiyoda uchraydigan chittaklarning eng kattasi, uning kattaligi dala chumchuqlarining kattaligichadir. Rangi o'zgaruvchan. Yelka tomondagi patlari sariq-yashil, qorin tomoni sariq yoki yelkasi havorang-kulrang, qorin tomoni oqish, boshining usti va qorin tomoni o'rtasi qora, dum patlarining chekkasi oqish. Bu qushlar O'rta Osiyoda qariyb daraxtsimon o'simliklar bo'lgan hamma joyda uchraydi. Eski, kovak yoriqlariga ega bo'lgan daraxtli bog'lar ularning sevgan joyi. Yangi yosh bog'lardan qochadi, shuning uchun bunday joylarga "skvorechniklar" qilib qo'yish kerak. Erta bahor mart oylaridan o'z juftlarini topib, daraxt kovaklariga quruq barg, hashaklardan uya quradi. Uyasiga o'ntagacha tuxum qo'yadi. Urg'ochilari tuxum bosadi, tuxumdan chiqqan bolalarini 16-17 kun uyalarida boqadi, so'ngra uchirma qilib chiqib uyalarini atrofida olib yuradi. Bolalari mustaqil hayotga o'tishi bilan qayta tuxum qo'ya boshlaydi. Kuzda uncha ko'p bo'lmagan galalar hosil qilishi mumkin. Daraxt shoxlarida hatto daraxt barglarida chaqqonlik bilan harakat qiladi. Xilma xil hasharotlarni, kapalak va ularning qurtlari, qish oylarida esa o'simlik donlari bilan ovqatlanadi. Bola boqish davrida kapalaklarni qurtini ko'plab ovlab, o'rmonchilikka katta foyda keltiradi. Sun'iy uyalarga oson ko'nikadigan qushlardan.

Qorayaloq – Turdus merula L.

Chumchuqsimonlar turkumi qorayaloqlar oilasiga kiradi. Qorayaloq nomiga yarasha tim qora rangda, tumshug'i to'q-sariq, makiyonlari qora-qo'ng'ir rangda. Yoz va qish davomida buta va daraxtzorlarda yashaydi. Mevazor va uzumzor bog'larni chekkalarida uchraydi. Qorayaloq katta shaharlarda yashaydigan qushlardan biri hisoblanadi. Qishda yerda va daraxtlarda chaqqon harakat qilib

yuradi, yozda baland daraxtlarga piyola shaklida har xil o‘simlik barglari, iplardan loy bilan suvab, uyalar quradi. Shaharlardagi odamni ko‘pligi va shovqin suronlariga ko‘nikib borayotgan qushlardan biri hisoblanadi. 13-14 kun tuxum bosadi, uyasida erkagi va makiyoni bolalarini boqib, uchirma qiladi. Qorayaloq ovqatini yerdan topib yeydi. Ovqati yomg‘ir chuvalchangi, shilliqqurt, qo‘ng‘iz va kapalak qurtlaridan iborat. Mevalar bilan ham ovqatlanib, bog‘larga biroz zarar yetkazsa ham, hasharotlar bilan ovqatlanib foyda keltiradi.



Oq jibljibon – *Motocilla alba* L.



Chumchuqsimonlar turkumi, jibljibonlar oilasiga kiradi. Kelib ketuvchi qushlar, qishlash uchun Hindiston, Eron kabi janubiy mamlakatlarga boradi. Bular chumchuq kattaligidagi qushlar bo‘lib, chumchuqlarga nisbatan oyoqlari va dumi uzun. Yelka tomonidagi patlari kulrang, boshi va ko‘kragi qora, qorin tomoni oq. O‘rta Osiyoda keng tarqalgan qushlardan hisoblanadi. Bu qushni katta ko‘l, daryo, kanal va ariq qirg‘oqlarida, hamma yerda uchratish mumkin. Fevral va

mart oylarida ularni sayrashlari eshitaladi. Mart, aprel oylarida uya qurib, ko‘plari bola ochib ulguradi. Jibljibon uyalarini toshlarning ostiga, chirigan to‘nkalar tagiga, suv qirg‘oqlaridagi bo‘shliq joylarga, uylarning tomiga, daraxtlarga quradi. Uya daraxt po‘stloqlari, cho‘plar, poxoldan bo‘lsa, o‘rtasini paxta, jun, patlar kabi yumshoq narsalar bilan to‘shaydi. 2 tadan 7 tagacha tuxum qo‘yadi, 12 kun tuxum bosadi, bolalarini shuncha kun uyada boqadi. Yoz davomida 2-3 marta bola ochadi.

Jibljibonlarda jinsiy dimorfizm bor, erkaklari tovlanma ranglarga ega. Qish issiq kelgan yillari shahar va qishloqlarda qishlab ham qoladi. Mayda hasharotlar va odam yashaydigan joylardagi pashsha hamda chivinlarni qirishi bilan foydali qush hisoblanadi.

Uzun dumli qarqo‘noq – *Lanius schach* L.



Chumchuqsimonlar turkumi qarqo‘noqlar oilasiga kiradi. Boshqa qarqo‘noqlarga nisbatan dumining uzun bo‘lishi bilan farq qiladi. Qarqo‘noqlarni asosiy belgilaridan biri tumshug‘i yirtqich qushlarning tumshug‘i singari tuzilgan. Yon tomondan qisilgan, tumshug‘i ichida ilmoqchasi bor, ilmoqcha oldida o‘tkir tishchasi bor. Tumshug‘ining asosi kengaygan va og‘iz bo‘shlig‘i katta. Boshi katta, bo‘yni qisqa, qanotlari kaltaroq, dumi uzun. Boshining usti, gavdasining oldingi qismi, ikki yoni kulrang. Boshining yon tomonida qora yo‘llari bor, kelib ketuvchi qushlar sirasiga kiradi. Osiyo materigining janubiy qismida qishlaydi. Oktyabr, ba’zida noyabrda uchib ketadi, bahorda aprelning ikkinchi yarmi va may

oylarida uchib keladi.

To‘qaylarga, tog‘, o‘rmonlarga, bog‘larda daraxt-butasion o‘simliklarga uya quradi, ko‘pincha, parvarishda bo‘lgan bog‘larga ham uya quradi. Uyalarini daraxtlarning 5-6 m. balandliklariga quradi. Makiyonlari tuxum bosganda, xo‘rozlari boqadi. Tuxumini 12-13 kun bosadi, bolalari 14-15 kunda uchirma bo‘lib uyadan chiqadi, bu davrda qanotlari, patlari yaxshi rivojlanmagan bo‘ladi, ikki haftalar davomida boqqanidan keyin uchadigan holatga keladi. Uzundumli qarqo‘noq qaldirg‘och, chumchuq va musilchalarni ham bolalariga hujum qiladi. Lekin asosiy ovqati hasharotlar, qo‘ng‘izlardir.



Qora shaqshaq – *Sturnus vulgaris* L.

Chumchuqsimonlar turkumining chug‘urchuqlar oilasiga kiradi. Tanasi ixcham, qanotlari uzun bo‘lishi bilan boshqa chumchuqsimonlardan ajralib turadi, dumi kaltaroq, keng, tumshug‘i ingichka, uzun. Patlari qora, tovlanma ko‘rinishga ega. Qanot patlari ichida oq dog‘lari bo‘lgani uchun chiporroq ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bizga kelib ketuvchi qushlardan, G‘arbiy Yevropada qishlaydi. O‘zbekistonga chug‘urchuqlar fevralning oxiri mart oyi boshlarida uchib kelib, daraxt kovak-kandiklariga uya quradi. Ba’zida uylarning karnizlariga, jar yoqalariga ham uya quradi. Sun‘iy o‘rnatilgan "uyalar"dan bola ochishda foydalanadi. Uyalarini erkagi va makiyoni barg, hashak-xushaklar, qushlarning patlaridan quradi. Uyalarida 4-6 tuxum bo‘ladi, 14-15 kun erkagi va makiyoni navbatlashib tuxum bosadi. Bolalarini 16-18 kun ota-onasi uyada boqib, uchirma qiladi. Tashqarida 14-15 kun boqadi. Bolalarini hasharotlar, ularning qurtlari va qo‘ng‘izlar bilan boqadi. Bulardan tashqari tut, gilos, olcha, uzum mevalari va

jo'gori, bug'doy, arpa, mosh o'simliklarining donlari bilan ovqatlanadi. Lekin meva va don ovqatning 30-40 foizini tashkil etadi xolos. Chug'urchuq Farg'ona shahrida uylarini uylarning karnizlariga, daraxt kovaklariga quradi. Kuz oylarida uchib ketish oldidan bir necha o'nlab galalar hosil qiladi.

Bu qushlar bog'dorchilikka va donchilikka keltirgan zarariga nisbatan, ko'proq hasharotlar bilan ovqatlanib foyda keltiradi. Chug'urchuqlarni himoya qilish kerak. Bahor oylarida bog'larda sun'iy uyalar qilib, bu qushlarni jalb qilish foydadan xoli emas.



Pushti rang chug'urchuq, Soch – Pastor roseus L.



Chumchuqsimonlar turkumining chug'urchuqlar oilasiga kiradi. Patlari qora va pushti rangda. Boshi, ko'kragi, qanoti, dumi qora, tanasining qolgan qismlari pushti. Boshida tovlanma rangga ega patlardan iborat popugi bor. O'zbekistonga kelib-ketuvchi qushlardan. O'rta Yer dengizi bilan Kaspiy oralig'ida hamda Hindistonda qishlaydi. O'zbekistonda bahor oylari ularning uchib kelish vaqtlarida bir necha o'nlab galasini uchratish mumkin. Uylarini tog' qoyalarga, o'pirilgan yerlarga,

daryolarning jarlik qirg'oqlariga, temir yo'llarning qirg'oqlariga, tashlandiq harobalarga bir nechasi yoki bir necha o'nlab gala bo'lib quradi. Uya qurishda va bolalarini boqishda erkagi va makiyoni ishtirok etadi. May oyining ikkinchi yarmidan boshlab tuxum qo'yadi. May oyining oxirlarida 4-6 tadan jish bola ochib chiqadi. Bolalari 20 kundan keyin uchirma bo'lib, galalariga qo'shila boshlaydi. U, asosan, chigirtkalar bilan ovqatlanadi. Bir kunda bir dona chug'urchuq 200 dona (200 gr) chigirtka iste'mol qiladi. Bu o'z og'irligiga nisbatan ikki marta ko'p demakdir. Chug'urchuqlar galasi, olcha, gilos, uzum mevasi bilan ham ovqatlanib, bog'larga zarar keltiradi.

Pushtirang chug'urchuq juda ham foydali qushlardan hisoblanadi. Bular chigirtkalarni qirish bilan bog'larga keltirgan zararini qoplaydi. Bundan tashqari, chug'urchuqlar zararli qo'ng'iz, yarim qattiqqanotlilarni, kapalak qurtlarini va boshqa hasharotlarni ham yeb foyda keltiradi.

Mayna-Olaqanot – *Acridotheres tristis* L.

Chumchuqsimonlar turkumining chug'urchuqlar oilasiga kiradi. Maynaning vatani Hindiston va Afg'oniston bo'lib, O'zbekistonda, 1912 yilda bu qushlarning bir necha jufti Termiz shahrida hisobga olingan. Bu yerga u Afg'onistondan uchib o'tgan. 1926 yilda Turkmanistonning Kerki shahrida va 1930 yillarda O'zbekistonning janubiy rayonlarida keng tarqalgan. 1940 yillar Buxoro va Samarqand viloyatlarida 1955-60 yillarda Jizzax va Toshkentda, 1960-65 yillardan boshlab Farg'ona vodiysida keng tarqalgan. Mayna o'z yashash hududini (arealini) kengaytirib borayotgan qushlardan hisoblanadi. Mayna O'zbekistonda o'rmon va bog'lar, qishloq va shaharlarda ko'plab uchraydi. Insonlar yashaydigan joylarda, katta va kichik shaharlarga moslashib borayotgan qushlardan biri. Bu qushlar uylarini, daraxt kovaklariga, shox-shabbalar orasiga, jarliklardagi kovaklarga, shaharlardagi baland binolar, minora va imoratlarning karnizlariga quradi. Laylak uylarning ostiga uya qurgani ham ma'lum. Uyalariga 4-6 ta tuxum qo'yib, 14 kun urg'ochisi va erkagi tuxum bosadi. Uyada bola ochuvchi qushlardan, bolalarini 25-26 kun uyalarida, uchirma bo'lgandan keyin 5-6 kun boqadi. Urg'ochilari bir necha kun o'tgach, yana tuxum qo'yishga o'tadi.



Mayna, asosan, chigirtkalar va boshqa hasharotlar bilan ovqatlanadi. Bir juft mayna bir yilda 150 ming chigirtkani iste'mol qilgani hisoblab chiqilgan. Gilos, olma, uzum, olcha, nok, xurmo bilan ovqatlanib, ko'paygan yillari bog'dorchilikka ko'plab zarar yetkazadi.

Mayna shaharlarda xo'jaliklardan chiqadigan chiqindilar bilan ovqatlanishga moslashib borayotgan qushlardan. To'kilgan o'simlik donlarini ham iste'mol qiladi. Mayna kuz va qish oylarida o'nlab hatto yuzlab galalar hosil qiladi. Keyingi yillarda son jihatdan ko'payib bormoqda. Bulardan, bog'dorchilikka keltirayotgan zarari va shaharlarda uylarning karnizlarini, zavod va fabrika tomlarini axlatlari bilan ifloslantirayotganlaridan norozi bo'lishmoqda. Maynaning foydali yoki zararli ekanligini aniqlash uchun keng qamrovli ilmiy tekshirish ishlarini olib bormasdan biron xulosa chiqarish qiyin.

Uy chumchug'i – *Passer domesticus* L.



Chumchuqsimonlar turkumining haqiqiy chumchuqlar oilasiga kiradi. Uy chumchug'i erkagining patlari juda xilma xil bo'lib, kulrang chipor bo'ladi. Boshining usti va yelkasining oxiri kulrang, yelkasining oldi tomoni to'q qo'ng'ir (kashtan rangda) qanotlari ham to'q qo'ng'ir bo'lib, qora dog'lari bor. Tomog'i va jig'ildoni qora. Boshi yon tomondan oqish kulrang bo'lib, ko'zining atrofida qora dog'i bor. Makiyonlari oddiyroq rangda bo'lib, yelka

va qorin tomonda qo'ng'ir dog'lari bo'ladi. Farg'ona vodiysida keng tarqalgan qushlardan. Doimo odam yashaydigan joylar va odamga yaqin yerlarda yashaydi. Aholi yashaydigan uylarga, molxonalarga, don va yem omborlariga, tegirmonlarga uyalar quradi yoki ba'zida daraxtlarga ham uya quradi. O'troq qushlar, aprel oyidan tuxum qo'ya boshlaydi. Uyalarida 3-4 ta tuxumi bo'ladi. Erkagi va urg'ochisi tuxum bosishda, bolalarini boqishda ishtirok etadi. Tuxumdan 10-11 kunda bolalar chiqadi, ular 12-13 kunda uchirma bo'ladi. Bir necha kun jo'jalarini olib yurib keyin makiyonlari yana tuxum qo'ya boshlaydi. Yoz davomida 2-3 marta bola ochadi. Uy chumchug'i bolalarini hasharotlar bilan boqib, foyda keltiradi. Boshqa vaqtlarda don, meva va oziq-ovqat chiqindilari bilan ovqatlanadi. Bu qushlar unchalik katta galalar hosil qilmaydi, shuning uchun xo'jalikka katta zarar yetkazmaydi.

Hindiston chumchug'i – Passer indieus Jard.

Haqiqiy chumchuqsimonlar oilasiga kiradi. Tashqi ko'rinishdan uy chumchuqlariga o'xshab ketadi. Lekin boshining ikki yonidagi patlari oz bo'lishi bilan ulardan farq qiladi. O'rta Osiyoda ancha keng tarqalgan, sentyabr va oktyabr oylarida qishlash uchun Afg'onistonga va Hindistonga keta boshlaydi. Bu chumchuqlarning uya qurish joylari xilma xil. Ular uylarga, molxonalarga, daraxtlarga, to'qayzor va



tog' qoyalariga gala bo'lib uyalar quradi. Faqat yozda bir marta ko'payadi. Tuxumlarini 12-13 kun makiyonlari bosadi, bolalarini 12-14 kun urg'ochi va erkagi birga boqib uchirma qiladi. So'ngra bolalari ham galaga qo'shib, ko'chib yura boshlaydi. Bu qushlar bahor oylarida o'zlari ham bolalarini ham hasharotlar bilan boqib foyda keltiradi. Keyin yuzlab va minglab sonda galalar hosil qiladi. Bug'doy, arpa, sholi, tariq va boshqa madaniy o'simliklarning donlari bilan ovqatlanib, xo'jaliklarga zarar yetkazadi. Chumchuqlar oq jo'gori va jo'gorining ashaddiy kushandasi hisoblanadi. Ko'pincha, mana shu o'simliklarga zarari katta bo'ladi. Ko'plab ko'paygan yillari 30-50 foiz hosilni nobud qilgani hisoblab chiqilgan. Mahalliy aholi oddiy uslublar bilan "chuchelalar" qo'yish, shovqin chiqaruvchi materiallar, baqirib-chaqirish bilan haydaydi. Ko'plab ko'payib ketgan yillarda donlarni bariyning ftorli birikmalari bilan zaharlab, mahallalardan uzoq joylarga sepib qarshi kurashilgan.

Chumchuqlarga qarshi kurashda ehtiyotkorlik choralarini ham esdan chiqarmaslik kerak. Chunki 60-70-yillarda Xitoyda bu chumchuqlarni tamoman qirib tashlanishi oqibatida sholi va boshqa donlarning hosildorligi 2-3 yil ortib, so'ngra hosildorlik keskin kamayib ketgan. Sababi o'rganilganda, chumchuqlar yo'qligi sababli zararli hasharotlar ko'payib, hosildorlikka ta'sir etgan. Xitoyda qaytadan chumchuqlar sotib olinib, ko'paytirilgan.

SUT EMIZUVCHILAR SINFI

Sut emizuvchi hayvonlar sinfi umurtqali hayvonlarning yuqori darajada rivojlangan vakillarini birlashtiradi. Markaziy nerv sistemasi va sezgi organlari oliy darajada rivojlangan. Ularning fe'l-atvori murakkab. Yer sharini hamma qismlarini egallagan, 4500 ga yaqin turlarni birlashtiradi. Farg'ona shahri uchun xarakterli vakillarini keltirib o'tamiz.

Uzun quloq tipratikan, Kirpi – *Hemiechinus auritus* Gm.

Hasharotxo'r sut emizuvchi hayvonlar turkumining asl tipratikanlar deb ataluvchi kenja oilasi vakili. Gavdasi tikanlar bilan qoplangan, teri ostida chamberak muskullari bor, bu muskullar qisqarsa yumaloq bo'lib o'ralib oladi. Bu tipratikanning qorin tomonini qoplagan juni oq, kattaligi 19-20 sm, dumi juda qisqa bo'ladi. Ular uyasini butalar ostiga, chuqurchalarga, devorlar ostiga quradi. Farg'ona shahri atrofidagi bog'larda, shahar xonadonlarida, qabristonlarda uni uchratish mumkin, qishni uyquda o'tkazadi.



Faol hayot faoliyati bahorda boshlanib, yakka yoki juft bo'lib yashaydi. Ular har xil hasharotlar, kaltakesak, zaharli va zaharsiz ilonlar, mayda kemiruvchilar bilan ovqatlanadigan foydali hayvondir.

Kichik oq tish – *Crocidura suaveoleans* Pall.

Hasharotxo'r sut emizuvchilar turkumi yerqazalar oilasining vakili. Tanasining uzunligi 5-7 sm gacha, dumi 4-5 sm atrofida. Mo'ynasining ustki tomoni to'q, ostki tomoni och kulrang, tishlari oq. Hasharotlar, ularning lichinkalari, chuvalchang va o'simliklar bilan ovqatlanadi.



Bahor va yoz oylarida urchib, 2-3 haftadan keyin ko'zi



ochilmagan 5-10 ta chala bola tug'adi. Bolalari bir oylardan keyin mustaqil hayot kechiradi. Bular suv qirg'oqlari, tog' yonbag'irlari, qamishzor, cho'l va sahro, bog'larda odam turadigan joylarda ham yashaydi. Oqtishlar har xil hasharotlarni qirish bilan foyda keltiradi.

Kichik ko‘rshapalak – Pipistrellus pipistrellus Schreb.

Ko‘rshapalaklar turkumi hasharotxo‘r ko‘rshapalaklar kenja turkumining asl ko‘rshapalaklar oilasiga kiradi. Tanasining uzunligi 4-4.5 sm. Eng kichik ko‘rshapalaklardan biri hisoblanadi. Mo‘ynasining usti sarg‘ish-malla, qorin tomoni och-kulrang bo‘ladi. Bu ko‘rshapalaklar har xil binolar karnizlariga, devor



yorqlariga, daraxtlarning kovak-kandiklariga uyalar quradi. Qorong‘u tushishi bilan kovak-kandiklardan uchib chiqib boshlaydi. Bular elektr yoritkichlari atrofida uchib yurganini osonlik bilan kuzatish mumkin. Kichik ko‘rshapalak tungi chivin, pashsha, kuya, kechki tunlamalar bilan ovqatlanadi. Qishda uchib ketmay, o‘z uyalarida qishlaydi. Urg‘ochilari iyun oylarida 1-2 ta bola tug‘adi. Yiliga bir marta tulaydi, bu ham bo‘lsa iyul-avgust oylariga to‘g‘ri keladi. Kichik ko‘rshapalak zararli hasharotlarni qirish bilan baland qavatli uylar aholisi uchun ko‘plab foyda keltiradi.

Bog‘ yoki o‘rmon olmaxoni – Dryomys nitedula Pall.

Bog‘ olmaxoni kemiruvchilar turkumining o‘rmon olmaxoni oilasi vakili hisoblanadi. Uncha katta bo‘lmagan olmaxonga o‘xshash kemiruvchi. Tanasining uzunligi 10 sm., dumining uzunligi ham taxminan tana uzunligiga teng, dumi yapaloq, mo‘ynalari ikki yonga o‘sgan, ko‘zlari katta, yumaloq, quloq surpasi keng, yumaloqlashgan, mo‘ynasi qalin, yelkasi sarg‘ish yoki qo‘ng‘ir kulrang, ko‘zidan qulog‘i orqali burnigacha cho‘zilgan qora dog‘i bor. Bog‘ olmaxonini yuqoridagi belgilaridan osongina tanib olish mumkin.

O‘rmon olmaxoni Janubiy Yevropa, Kichik Osiyo, Eron va O‘rta Osiyo tog‘lari va adirlarida keng tarqalgan. O‘zbekistonning keng bargli o‘rmonlarida, mevali bog‘ va hovlilarda uchraydi. Tog‘li rayonlarda 3500 va 4000 metr



balandliklardagi archazor o‘rmonlarda qayd etilgan. Daraxtlar tanasida, butalar orasida va yerda chaqqon harakat qiladi. O‘tkir tirnoqlari bor, shoxdan-shoxga, hatto, daraxtdan daraxtga sakrab o‘tadi. Bu hayvon yashirin hayot kechiradi, aktivligi qariyb kechasi o‘tadi. Kunduzi uyalarida yoki boshqa kovaklarda dam oladi. Bolalaydigan uyalarini o‘simlik bargi, pat, mo‘ynalari bilan bezaydi. Bir yilda bir marta o‘rtacha 3-4 tadan bola beradi. Bolalari ko‘zi ochilmagan mo‘ynasiz tug‘iladi, uyalarini uzoq vaqt

tark etmaydi.

Bizning kuzatishimizcha, Farg‘ona shahrida hovli bog‘larida, shahar atroflaridagi meva bog‘larida uchrab, olma, o‘rik, shaftoli, uzum, gilos va boshqa mevalarning urug‘i hamda yosh nihollari bilan oziqlanadi. Bir va ko‘p qavatli uylarning karnizlaridan, devor va minoralarning kovaklaridan o‘ziga pana joy topadi. Kechasi daraxt mevalari bilan ovqatlanayotganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Mevaxo‘rligi bilan bog‘larga katta ziyon yetkazmaydi, chunki bularning populyasiyasi juda siyrak.

Kulrang (yoki ombor) kalamush – *Rattus norvegicus* Berk.

Kemiruvchilar turkumi sichqonlar oilasiga kiradi. Yer sharining qutb va qutb sahrolaridan boshqa hamma joyda uchraydi. O‘zbekistonda keng tarqalgan. Kattaligi 25 sm, dumi doimo tana uzunligidan kaltaroq, rangi kulrang, qo‘ng‘ir yoki sarg‘ish, qorin tomoni oqish bo‘zrangda. Dumidagi hakam-dukam qo‘ng‘ir qillari orasidan tangachalari yiltillab ko‘rinib turadi.



O‘zbekistonga ikkinchi jahon urushidan keyin kelib qolgan. Kulrang kalamush odam turadigan binolarda, poliz va bog‘, suv bo‘ylariga uya quradi. Qalin devorlarni, yog‘ochdan qilingan eshik va pollarni kemirib o‘ziga yo‘l ochadi. O‘simlik va hayvonlar bilan ovqatlanadi. Ular yemaydigan narsaning o‘zi yo‘q. Chirib, sasib yotgan o‘limtiklardan tortib, tezaklarni ham yeydigan hayvon. Hatto yosh bolalarni tishlab ketgan hollari ham bo‘lgan. Hayvonot bog‘ida Afrika filining panjasini g‘ajib, halok qilgani ham ma‘lum. Yerda va tik qoyalarda tez, chaqqon yugurib yuradi, suvda yaxshi suzadi, yerni qazishga yaxshi moslashgan, hidlov va eshituv organlari yaxshi taraqqiy etgan. Bolasi 3-4 oyda voyaga yetadi. Yiliga 3-4 marta 5 tadan to 15 tagacha bola tug‘adi. Bular eng xavfli zararkunanda hayvon. U omborlarda oziq-ovqat mahsulotlarini nobud qiladi. O‘lat, quturish kabi yuqumli kasalliklarni tarqatadi. Shahrimizda ularni ko‘p qavatli uylarning yerto‘lalari, sug‘orish ariqlaridagi quvur ichida va ko‘proq bog‘larda, xonadon omborxonalarida ko‘plab uchratish mumkin.

Turkiston kalamushi – *Rattus turkestanicus* Sat.



Kemiruvchilar turkumining sichqonlar oilasiga kiradi. Bular ham odam turadigan yerlarda, tog‘-o‘rmonlarda va suv bo‘ylarida yashaydi. Bular yong‘oq va o‘simlik mevalari, hasharotlar hamda o‘simliklar bilan ovqatlanadi. Yiliga 3 marta 6-10 tadan bola tug‘adi. Omborlarga, yong‘oqzor bog‘larga

zarari katta. Kulrang kalamushning ko‘plab ko‘payishi sababli, bular hozirgi kunda shahrimizda ancha ozayib qoldi. Bular ham zararkunanda, o‘lat, quturish kasalliklarini tarqatadi. Kalamushlarga har xil usullar bilan kurash choralari olib boriladi. Qopqonlar qo‘yish, kimyoviy moddalar sepish va boshqalar.

Uy sichqoni – *Mus musculus L.*

Kemiruvchilar turkumining sichqonlar oilasi vakilidir. Kattaligi 7-11 sm. Dumi tanasi uzunligidan kaltaroq, mo‘ynasi mayin. Rangi o‘zgaruvchan. Kulrang, qo‘ng‘ir, sariq va och qo‘ng‘ir bo‘ladi. Yer sharida keng tarqalgan, hamma biotoplarda uchraydi. Odamlar yashaydigan uylarda, eski harobalarda, hovli, bog‘ va dalalarda uyalar quradi. Uylarimiz atrofida kechasi ko‘plab uchraydi. Kalamush ko‘paygan yerlarda ularning soni ancha ozayadi. Chunki kalamushlar sichqonlar bilan ovqatlanadi. Uy sichqonlarining embrional rivojlanishi 20 kun, 4 dan 12 tagacha bola tug‘adi. Bolalari 1 oyda voyaga yetadi. Yil bo‘yi ko‘payib, 10 martagacha bola beradi.

Uy sichqonlari oziq-ovqat mahsulotlarini buzishi, boshqa har xil narsalarni qirchishi, har xil kasalliklarni tarqatishi bilan katta zarar yetkazadi. Albatta, ularga kurash choralari olib borish zarur.



**FARG‘ONANING UMURTQALI HAYVONLARI
RO‘YXATI**

O‘zbekcha nomi	Lotincha nomi
Zog‘ora baliq, sazan	<i>Cyprinus carpio</i>
Oddiy qora baliq	<i>Schizthorax intermedius</i>
Shim baliq	<i>Barbus eapito</i>
Turkiston qum balig‘i, tangacha baliq	<i>Gobio gobio</i>
Gambuziya	<i>Gambusia affinis</i>
Ko‘k qurbaqa	<i>Bufo viridis</i>
Ko‘l baqasi	<i>Rana ridibunda</i>
Bo‘z fotmanchig‘i, bo‘z gekkon	<i>Gymnodactylus russowi</i>
Turkiston fotmanchig‘i, turkiston xorom kaltakesagi	<i>Gymnodactylus fedstchenkoi</i>
Cho‘l bilakuzugi, cho‘l ilonquyrug‘i	<i>Ablefarus deserti</i>
Ildam kaltakesak	<i>Eremias velox</i>
Sariq ilon	<i>Ophisaurus apus</i>
Suv ilon	<i>Natrix tesseliata</i>
Naqshdor o‘rmalovchi chipor ilon	<i>Elaphe dione</i>
Qalqontumshuq, Bo‘shilon	<i>Ancistrodon halys</i>
Turkiston oq laylagi	<i>Ciconia ciconia asiatica</i>
Ko‘k kaptar, Yovvoyi kaptar	<i>Columba livia</i>
Qumri	<i>Streptopelia decaocta</i>
Musicha	<i>Streptopelia senegalensis</i>
Oddiy kakku	<i>Cucuius canorus</i>
Uy yapaloqqushi	<i>Athene noetna Scop.</i>
Bulbul	<i>Luscinia megarhynchos</i>
Sassiq popushak	<i>Upupa epops</i>
Qora jarqaldirg‘och	<i>Apus apus</i>
Oq qanotli qizilishton	<i>Dendrocopos leucopterus</i>
So‘fito‘rg‘ay	<i>Galerida cristata</i>
Qishloq qaldirg‘ochi	<i>Hirundo rustica</i>
Tuya qaldirg‘och	<i>Hirundo daurica</i>
Zarg‘aldoq	<i>Orioius orioius</i>
Hakka, zag‘izg‘on	<i>Pica pica</i>
Quzg‘un	<i>Corvus corax</i>
Ola qarg‘a	<i>Corvus cornix</i>
Katta chittak	<i>Purus major</i>
Qorayaloq	<i>Turdus merula</i>
Oq jibljibon	<i>Motocilla alba</i>

Uzun dumli qarqo‘noq	Lanius schach
Qora shaqshaq	Sturmus vulgaris
Pushti rang chug‘urchuq, soch	Pastor roseus
Mayna, olaqanot	Acridotheres tristis
Uy chumchug‘i	Passer domesticus
Hindiston chumchug‘i	Passer indieus
Uzun quloq tipratikan, Kirpi	Heniechinus auritus
Kichik oq tish	Crocidura suaеoleans
Kichik ko‘rshapalak	Pipistrellus pipistrellus
Bog‘ yoki o‘rmon olmaxoni	Dryomys nitedula
Kulrang (yoki ombor) kalamush	Rattus norvegicus
Turkiston kalamushmi	Rattus turkestanicus
Uy sichqoni	Mus musculus

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. II tom. - Toshkent, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi» 1,2 jildlar – T.: “Fan”, 1983-2006.
3. Amfibiya va reptiliyalar. -Toshkent: Fan. 1969.
4. Baliqlar va tuban xordalilar. -Toshkent: Fan. 1979.
5. Bogdanov O.P. O‘zbekistonning hayvonot dunyosi. -Toshkent: O‘qituvchi. 1969.
6. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. –Toshkent. 1965.
7. Qushlar. -Toshkent: Fan. 1969.
8. Moïsov V.A. Turkistonning yovvoyi tabiati. Hayvonot dunyosi. - Toshkent: SHarq. 1996.
9. Sut emizuvchilar. -Toshkent: Fan. 1960.
10. O‘zbekiston umurtqali hayvonlari. J.A.Azimov tahriri ostida. -Toshkent: Fan. 2006

MUNDARIJA

So‘z boshi.....	4
Farg‘ona shahrining ekologik sharoiti.....	5
Baliqlar sinfi.....	7
Suvda va quruqda yashovchilar sinfi.....	10
Sudralib yuruvchi hayvonlar sinfi.....	12
Qushlar sinfi.....	16
Sut emizuvchilar sinfi.....	32
Farg‘onaning umurtqali hayvonlari ro‘yxati.....	36
Adabiyotlar.....	37